

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN MAKTABGA MOSLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI.

*Ilmiy rahbar: Ozoda Ibragimovna
SamDCHTI dotsenti v.v.b, p.f.f.d (PhD)
Qarshiyeva Zulfizar
SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning maktab ta'limi jarayonida ro'y beradigan psixik o'zgarishlar, rivojlanishlar, ularning maktabga moslashish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi bolalarda yuz beradigan bu kabi muammolarni bartaraf etish va ta'lim jarayoniga yanada qiziqishini orttirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: psixik o'zgarishlar, kichik maktab yoshi, qiyinchiliklar, o'quv jarayoniga tayyorgarlik, qiziqish, moslashish, ehtiyoj, o'qish faoliyati.

Hozirda ta'lim tizimini samaradorligini oshirishda boshlang'ich ta'limni o'rni va roli beqiyosdir. Chunki maktab ta'limidagi asosiy fundamental bilimlar boshlang'ich ta'limda olinadi. Pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi esa bu yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlarini bilishni taqozo etadi. Shu o'rinda kichik maktab yoshidagi bolalarning yosh chegaralari va ularda yuz beradigan psixologik o'zgarishlar haqida fikr yuritimiz. Kichik maktab yoshidagi bolalarning ta'lim faoliyatiga moslashishi juda muhim jarayon bo'lib, bu jarayon ta'limni samarali tashkil etilishidagi o'rni beqiyosdir. Chunki, samarali tashkil etilgan dars bu ta'lim taraqqiyotini ta'min etadi. Maktabga ta'limining dastlabki bosqichlarida boshlang'ich ta'limga kelgan o'quvchi maktabga eng avvalo jismoniy jihatdan, keyin esa aqliy, ruhiy, motivatsion va irodaviy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Bu kabi tayyorgarliklar o'quvchini ta'lim tizimiga moslashuviga yordam beradi. Shu o'rinda kichik maktab yoshidagi bolalar ruhiy kamolati haqida ma'lumot berib o'tishimiz lozim.

Psixologiya fanida kichik maktab yoshi davriga 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari kiritiladi. Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarlikni bog'chada tarbiyalanayotganidan boshlab tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning muhim xususiyatlaridan biri ehtiyojlarga moyilligidir. Bu ehtiyojlari o'zining sumkasi, kitoblari, dars tayyorlaydigan stoli, maxsus formalari bo'lishi ularning o'zlarini kattalardek his qilishiga yordam beradi va maktabga borish qiziqishini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning boshqa yoshdagi bolalardan farqi o'z idrokining o'tkirligi, ravshanligi, qiziquvchanligi, ishonuvchanligi,

xotirasining kuchliligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, ular maktabga ilk qadam qo‘yayotganida ularda tasavvurlar yorqin aks eta boshlaydi. Bizning allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino bolalarning o‘qish, ta‘lim olishlariga mas‘uliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo‘lgan. U bola 6 yoshga yetgach, muallimga bilim olish uchun topshirilishini aytib o‘tadi.

Bu davrda ularning faoliyati endi o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tgan va yetakchi faoliyati o‘qish faoliyati hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta‘limi va ruhiy holatlari haqida buyuk mutafakkirlarimiz ham o‘z fikrlarini bildirishgan. Bolalarning 6-7 yoshdan boshlang‘ich sinflarga qabul qilinishi Ibn Sinoning o‘sha davrdagi g‘oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hol bolaning o‘qishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, “Bolaga ta‘lim asta-sekinlik bilan berilishi kerak, uni birdaniga kitob bilan bog‘lab qo‘ymaslik lozim”. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Uning fikriga ko‘ra, “Bilim olish uchun o‘quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo‘lishi kerak”. [2] Darhaqiqat, nimanidir o‘rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo‘lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo‘llaridan biri inson hammani o‘ziga do‘st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning fikrlarini fan tilida o‘quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug‘ilsagina o‘quv motivlari shakllantirilishi mumkin deb talqin qilishimiz mumkin. Har bir bolaning o‘sishi, oilada tarbiyalanishi har xil bo‘ladi. Shuning uchun ularni maktabda o‘quv jarayonlariga qiziqishini orttirish uchun psixologik tomondan tayyorlash, motivatsion, aqliy, xatti-harakatini tahlil etishi uchun yordam berish zarur. O‘quv faoliyatini o‘zlashtirishini oshirish uchun bolalarga pedagog yordam berishi lozim. O‘quv masalalarini ajratib olish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bir necha qiyinchiliklar olib keladi. Shuning uchun ham har bir darsning so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilari aniq bir topshiriqlarni bajarishning ma‘nosini qanday tushunganliklarini aniqlash uchun vaqt ajratishi kerak. Bolaning darsga qiziqishini oshirish uchun pedagoglar ularni rag‘batlantirib turishlari zarur, bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faxrlanish, darsga qiziqish istagini, samaraliroq ishlash o‘z kuchiga ishonch hislarini rivojlantirish, bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishga ishtiyoqini oshiradi. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar asosan, maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu turlicha bo‘lishi mumkin. Ko‘p bolalarda “menga chiroyli forma berishadi, ota-onam qalam, ruchka, daftarlar sotib olib berishadi yoki tengdoshlarim ko‘p bo‘ladi ular bilan o‘ynayman”- degan g‘oyalar bo‘ladi va shu asosda turli xil tasavvurlar qiladi. Maktabga borganda, ularda maktab ta‘limiga moslashish qiyin kechadi va shu paytda turli muammolarga duch kelishadi. Tengdoshlari bilan muloqotda moslashib keta olmaslik, 45 daqiqa davomida bitta partada dars tinglay olmaslik, diqqatini dars jarayoniga qarata olmaslik, maktab tartib-qoidalariga moslasha olmaslik va ular

maktab o‘qish jarayoni ekanligini anglaganda maktabda ta‘lim olish istagi pasayib ketishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda quyidagi qiyinchilik muammolar bo‘lishi mumkin;

- bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi,
- erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi,
- motivatsion sohalarning yetarli rivojlanmaganligi,
- oila tarbiyasidagi kamchiliklar,
- o‘zaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar,
- shaxs xususiyatidagi og‘ishishlar
- o‘zida ishonch kamligi

kabi muammolar o‘quvchilarda o‘rganish jarayonida, moslashib ketishi uchun qiyinchiliklar olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iroda tarbiyasi tashabbuskorlik, dalillik, o‘zini tuta olish, chidamlilik, kamtarlik va ishonchsizlik kabi irodaviy sifatlarini o‘stirishdan iboratdir. Iroda tarbiyasi bolalarda yomon sifatlar paydo bo‘lishining oldini olish va agar bunday sifatlar paydo bo‘lsa, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Bolalar irodasining salbiy tomonlaridan biri o‘ziga ishonmaslikdir. O‘ziga ishonmaslik holati o‘qish, mehnat, o‘yin va shu kabi holatlarda tez-tez qaytarilib turadigan muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladi.

F.I.Ivashenko tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, o‘qish sharoitida o‘quvchilarning o‘zlariga ishonmaslik holatlari asosan quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi:

- a) o‘qishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik tufayli;
- b) o‘quvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya‘ni ortiqcha talab qo‘yib yuborish orqali;
- v) ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning o‘quvchilar kuchiga, xotira qobiliyatlari va faxm-farosatlariga ishonchsizlik bildirish tufayli;
- g) ana shunday o‘quvchilarni yomon baho olganliklari uchun qo‘rqitish va jazolash orqali; [2]

Bu qiyinchiliklar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq. Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni kamayishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘qishidagi qiyinchiliklar va muammolar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivatsion va hissiy va irodaviy sohalarda aks etadi. Birinchi sinfnig oxirlariga borib, ko‘pchilik o‘quvchilar o‘z maktab majburiyatlariga mas‘uliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Ba‘zi bolalar maktab tartib-qoidalariga, o‘quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurni kerakli darajada rivojlanganligini talab qiladi, kirishimsizligi,

bu xatti-harakatlarining yetarli rivojlanmaganligi tufayli o'quvchilarda maktabga moslashish jarayonini uzoq davom etishiga sabab bo'ladi.

Bu vaqtlarda ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchilar maktabga tezda moslashib ketishi va barcha qiyinchiliklarni oson yengib o'tishi ularning o'rni beqiyosdir. Ota-onalar motivatsion suhbatlar olib borishi zarur, farzandining o'qish jarayoniga qiziqish bildirib, baholarini, qaysidir fanlardan qiynalayotganda yordam berishlari kerak bo'ladi. Ko'p hollarda o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon eta olmasligi, o'z fikri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi bo'yicha uzoq muddat o'ylashi yoki noto'g'ri javob bersam ustozim urushib beradi degan qo'rqishlar, kattaroq jamoa oldida o'z fikrini tushuntira olmasligi kabi qiyinchiliklarga duch kelishini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi hollarda, pedagog har bir o'quvchining qiziqishini, psixik holatini, o'zgarishlarni o'rganib chiqib, ularni rahbarlantirib, tengdoshlari bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarda ular bilan bir oila ekanligini tushuntirishi zarur va shunda boshlang'ich sinf o'quvchilari maktab ta'limiga oson moslashadi va muammolarni tez yengib o'tadi, bilim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan turli psixologik usullarni qo'llashni shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borish, ularning diqqati ixtiyorsiz bo'lganligi uchun har xil metodlar orqali dars o'tish lozim.

Psixolog L.S.Slavina tadqiqotiga ko'ra boshlang'ich sinflarda bilish faoliyati yetarli darajada shakllanib bo'lmagan, aqliy jihatdan nomustaqil o'quvchilar mavjuddir. Olimaning fikricha, o'qish va o'yin faoliyatlarida ularni fikr va mulohaza yuritishga o'rgata borish natijasida muvaqqat turg'unlikning oldini olish mumkin.[2] Darhaqiqat, o'yin faoliyati orqali diqqatini bir joyga jalb qilib qiziqtirishini oshirish mumkin va bunda ularni rahbatlantirib adolatli baholasa, ular o'rganmoqchi bo'lgan faoliyatini ham tez yodda saqlab qoladi.

Bundan tashqari, B. A. Suxomlinskiy, Sh, A, Amonaskvili va ularning shogirdlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib kelish nuqtai nazarini yoqlaganlar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishga olib keladi deb hisoblaganlar. Lekin bilimni baholash bolaning bilimni tekshirish bola kamoloti uchun ahamiyatli hisoblanadi va qiziqishini, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini orttiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashish muammolarining yechimi sifatida, ota-onalar va o'qituvchi asosiy o'rin egallaydi. Ota-onalar ularga psixologik jihatdan o'qishga to'g'ri yo'naltirishi lozim. O'qituvchilar ham boshlang'ich sinf o'quvchilari maktab sharoitiga moslashib olishi uchun ba'zi erkinliklar, do'stona munosabatda bo'lish ularning qiyinchiliklarini, psixik o'zgarishlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonlariga qiziqtirish hissini oshirish zarur. Kichik maktab yosh davridagi bolalarning diqqati tarqoqligi va bir narsaga ko'p vaqt diqqat qaratib o'tira olmasligi ya'ni diqqatining ixtiyorsiz ekanligini

inobatga olgan holda, tafakkurini boyitib, o‘qish jarayoniga ularda tashqi va ichki motivlarni shakllantirishga yordam berish kerak bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tasavvur, xayol, fantaziya xilma-xil bo‘ladi. Dars jarayonida o‘qituvchi turli vaziytlarni tasavvur qilishni so‘raydi. Bu holat yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo‘lgan taqdirdagina o‘quvchi tasavvurni rivojlantirishi mumkin. Aks holda, bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur, harakatlar qilishga qiynaladilar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalarni to‘qiyotganida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘z xayollari va tasavvurlariga asoslangan holda qiziqarli ertak va hikoyalarni o‘zlari mustaqil ravishda to‘qiy oladilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xayolida yangi obrazlar, fantastik vaziyatlarni tasavvur qiladi va yaratadilar. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus loyaqadlar shakllanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o‘qituvchi bilan bo‘ladigan munosabati katta ta‘sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. G‘oziyev Ontogenez psixologiyasi/darslik/. Toshkent: “NIF SH”, 2020
2. Sh.A.Do‘stmammedova, Z.T. Nishonova, S.X. Jalilova, SH.K.
3. Karimova, SG.T.>> Alimbaeva yosh davrlar va pedagogik psixologiya>>Toshkent - 2013
4. Davletova Rimajon Международный научный журнал «Новости образование: исследование в XXI века» kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarining rivojlanishi 2022г
5. Yadgarova, O. (2023). HISSIY VA RUHIY SALOMATLIKNI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AFZALLIKLARI. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 636–641.